



# **NUTQINING IFODALILIGI VA BOYLIQI**

## Reja:

1. O'qituvchi nutqida ifodalik.
2. Nutqda badiiy tasviriy vositalardan foydalanish yo'llari.
3. O'qituvchi nutqining boyligi va xozirjavoblilik.
4. Nutq odobi – insonning umumiy ahloqini belgilovchi asosiy mezondir.



✓ O'qituvchi nutqning muxim fazilatlaridan biri ifodalilikdir.

✓ Ifodalilikkina nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishini ta'minlaydi. Ifodalari sodda, ammo katta mazmunga ega bo'lgan nutq tinglovchida qiziqish uyg'otadi va uning ongiga tez etib boradi. Ifodalilik nuqtai nazaridan qaralganda kishilarning nutqlari hilma-hildir. Hatto bir mavzuga bag'ishlangan nurli kishilarning nutqi turlicha ifodalanishi mumkin.

- **O'z tuzilishi xususiyatlari, fazilati, xossalari bilan tinglovchining fikr va tuyg'ularini, diqqatini yrqinlashtirgan aytganlarga qiziqish uyg'otgan nutq ifodalidir.**

► Nutqning nimaga qaratilganligi, qanday voqealar unda aks etganligiga qarab ifodalilik hilma-hil ko'rinishlarda bo'ladi. Quvonch ifodasi, qo'rquv ifodasi, hayajon va chaqiriq ifodasi, jimlik va ajablanish ifodasi bor. Bularning har biri o'ziga xos nutqiy sharoitlar uchun o'rinli hisoblanadi. Chaqiriq ifodasini oshqning ishq sarguzashtlari bayonida qo'llab bo'lmaganidek, quvonch ifodasini bemor tepasida bayon qilish o'rinsizdir.

- Nutqda ifodalilikka qanday erishish mumkin? Tilshunos B.N. Golovin buning ettita shartini ko'rsatadi.
- Birinchidan, Nutq muallif tafakkurning erkin, mustaqil bo'lishi. Siyqasi chiqqan galarga bog'lanib qilgan kishining nutqi yuksak ifodalikka erisha olmaydi. Chunki bunday notiq erkin tafakkur qilmaydi, nutqiga sharoitga munosib ifodaviy vositalarni kirita olmaydi, ular ustida o'ylamaydi. Uylay olmaydi.
- Ikkinchidan, nutq muallif nima haqida so'zlayotganini, kimlarga so'zlayotganini bilishi, shunga qiziqishi, beparvo bo'lmasligi lozim.
- Uchinchidan, tilni, uning ifoda vositalarini, imkoniyatlarini yaxshi bilish (bunga til fanini yaxshi bilish orqali erishiladi).
- To'rtinchidan, til uslublari, (badiiy, ilmiy, publitsistik, so'zlashuv kabi) xususiyatlari, xossalarini bilish.



- Beshinchidan nutqiy masala ustida muntazam va ongli Mashq qilish. Bunda olingan bilimni malakaga aylantirish muhimdir. So'zlayotganda kishi uzoq o'ylab nutqni ifodali qiladigan vositalarni topa olmaydi. Buni vaqt taqozo etmaydi. Bu borada bizga malakamiz yordam beradi. U tezlik bilan bizga nutqni ifodali qiluvchi vositalarni topib berishi, keraksiz vositalarni uzoqlashtirish lozim. Ammo bunga qanday erishish mumkin? O'qigan badiiy, ilmiy va boshqa asarlarning tiliga ongli munosabatda bo'lish, til vositalarini tahlil etish, yodlash, ulardan foydalanib, nutq so'zlash Mashqlari o'tkazish ifodali so'zlash yuzasidan malaka hosil qilishning birdan-bir to'g'ri yo'lidir. Kishi doimo o'z nutqiy malakasini boyitishi, oshirib borishi zarur.
- Oltinchidan, so'zlovchining ifodali so'zlashga bo'lgan ongli ishonchi, ruhan tayyorgarligi, Kishi o'ziga-o'ziga mening nutqim ifodasiz, nochor va qashshoq, shunga ko'ra yorqinroq, ifodalibroq so'zlashish uchun kitoblar o'qishi, ulardan tilning ifoda vositalarini, maqol, hikmatli so'zlarni, iboralarni o'rganishim zarur deb olishi kerak.
- Ettinchidan, tilda nutqning ifodaliligini ta'minlovchi vositalarning bo'lishi. Ular tilda borligi uchun ham biz o'z nutqimizda ifodalikka erishamiz.

- 6. Nutqning boyligi (rang-barangligi) deyilganda unda ishlatilgan til vositalarining ko'pligi, kam takrorlanganligi, tinglovchiga ko'rsatilgan ta'siri tushuniladi. Nutqning boyligini aniqlash ancha mushkul bo'lib, ikki nutqni bir-biri bilan solishtirganda, qiyoslaganda, ulardagi til vositalarining so'zlovchi ko'zda tutgan axborotni yuzaga chiqarishda bajargan vazifasi ustida mulohaza qilganda namoyon bo'ladi.



- Kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko'rinadi. Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo'lgan xabarlarni, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos, adabiy normadagi ifodalar bilan yetkazish tushuniladi. Har qanday xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so'zlovchi tilni, adabiy til normalarini mukammal bilishi lozim. Muloyim, yoqimli, odobli so'zlash ham o'z – o'zidan paydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lug'at boyligini egallash, bu borada nutqi ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish orqali erishiladi. O'quvchi uchun eng yaxshi namuna o'qituvchi nutqidir. Buni o'qituvchi har doim o'zida his etib turishi, o'z nutqida hech vaqt odob – axloq, nutq madaniyati normalaridan chiqmasligi lozim.



- Nutqiy muammola salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha boʻladi, tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Agar salomlashish quruq, iltifotsiz boʻlsa, keyingi suhbatga salbiy taʼsir etishi mumkin. Koʻp asrlik odatiy anʼanalarimizga koʻra, “Assalomu alaykum”ning javobi “Vaalaykum assalom”dan iborat. Keyingi davrlarda yoshlar orasida salom ham, alik ham toʻmtoqlashib ketdi, yaʼni salom berish uchun ham uning javobi uchun ham birgina “Salom” ishlatiladigan boʻldi. Bu tarixiy anʼanalarimizdan chetlashishdir.

- ◆ Yetuk kishiga xos fazilatlardan yana biri xayrlashuv odobidir. tilimizda xayrlashganda shlatiladigan “xayr sog’ bo’ling”, “xayr, ko’rishguncha”, “xayr, omonlikda ko’rishaylik” kabi ta’sirchan iboralar mavjud. O’qituvchi sinfdan chiqayotganda “xayr, sog’ bo’linglar”, “xayr, yaxshi qolinglar” iboralarini ishlatsa, o’rinli bo’ladi.

- **O'qituvchining nutqi hamma vaqt o'zbek adabiy tili normalariga sodiq qoladi, adabiy tilning go'zal va ta'sirchanligini o'zida saqlaydi. Adabiy til ma'lum qo'shimchalar, grammatik kategoriyalarning qo'llanishidagi bir xilligi, barqarorligi bilan umumo'zbek xarakterida bo'ladi va shevalardan ustun turadi. Uning ustunligini bir tomondan adabiy normalar belgilaydi.**

